

Prezident Qoraqalpog'iston va Samarqand tajribasini ko'rsatib o'tdi.



Misol uchun, Qoraqalpog'istondagi mobil guruhlar bir oy davomida joyida muallimlarni o'qitgani natijasida ularning bilim va ko'nikmalari 15 foizga yaxshilangan.

Samarqandda 420 nafar ilg'or pedagoglar tanlab olinib, mobil guruhlar viloyatning 9 ming nafar o'qituvchilar malakasini oshirishni boshlagan.

Avloniy instituti Respublika milliy ta'lim markazi sifatida qayta tashkil etiladi va Toshkent davlat pedagogika universiteti bilan yagona tizimga aylantiriladi.

Umuman, yangi metodikalarga o'qitish tizimi Milliy ta'lim markazi va Toshkent davlat pedagogika universitetidan boshlanadi.

Universitet Xalq ta'limi vazirligi tarkibiga o'tadi, maktab o'qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha respublikadagi tayanch muassasaga aylantiriladi.

Hududlarda faoliyat yuritayotgan pedagogika oliygohlari bosqichma-bosqich universitetlar tarkibidan alohida ajratib chiqariladi va mustaqil ta'lim dargohiga aylantiriladi.